




New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

9 (71) 2024

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

9 (71)

2024

сентябрь

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

Received: 20.08.2024, Accepted: 02.09.2024, Published: 10.09.2024

УДК 616.24-002+616.379-008.64+ 616.921.5

SARS-COV-2 PNEVMONIYA VA 2-TIP QANDLI DIABET BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING KLINIK HOLATI

Aslonova Marjona Ramazonovna <https://orcid.org/0009-0003-8530-343X>

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, Ozbekiston, Buxoro sh. Gijduvon kochasi,
23 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Rezyume

SARS CoV-2 pnevmoniyasi va 2-tip qandli diabet bilan kasallangan bemorlarning klinik holati o'rganildi. Tadqiqotda Kovid-markaziga aylantirilgan Buxoro viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasida SARS CoV-2 pnevmoniyasi bilan kasalxonaga yotqizilgan 103 bemor jalb qilindi. Tadqiqotga jalb qilingan bemorlarning klinik belgilarning uchrashi o'zaro taqqoslab chiqildi. Klinik belgilar sifatida hansirash, nafas qisishi, burun bitishi, ko'krak qafasida og'riq, quruq yo'tal, xurujsimon yo'tal, umumiy xolsizlik, ishtaxaning pasayishi, tez charchash, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, mialgiya va artralgiya, ko'ngil aynishi yoki qusish, oznob, anosmiya, diareya, ko'p terlash, tomoqda og'riq kabi parametrlar o'rganildi.

Kalit so'zlar: SARS CoV-2, qandli diabet 2-tip, pnevmoniya.

КЛИНИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПАЦИЕНТОВ С ПНЕВМОНИЕЙ SARS-CoV-2 И САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ 2 ТИПА

Аслонова Маржона Рамазоновна <https://orcid.org/0009-0003-8530-343X>

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сино, Узбекистан, г. Бухара, ул. Гиждуванская, 23. e-mail: info@bsmi.uz

✓ Резюме

Изучено клиническое состояние больных пневмонией SARS CoV-2 и сахарным диабетом 2 типа. В исследовании приняли участие 103 пациента, госпитализированных с пневмонией SARS CoV-2 в Бухарскую областную инфекционную больницу, преобразованную в Ковид-центр. Проведено сравнение клинических симптомов пациентов, включенных в исследование. Клинические признаки включают свистящее дыхание, одышку, заложенность носа, боль в груди, сухой кашель, приступообразный кашель, общую слабость, снижение аппетита, быструю утомляемость, головную боль, головокружение, мialгию и такие параметры, как артралгия, тошнота или рвота, тошнота, anosmia, диарея. обильное потоотделение, боль в горле.

Ключевые слова: SARS CoV-2, диабет 2 типа, пневмония.

CLINICAL CONDITION OF PATIENTS WITH SARS-CoV-2 PNEUMONIA AND TYPE 2 DIABETES

Aslonova Marzhona Ramazonova <https://orcid.org/0009-0003-8530-343X>

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sino, Uzbekistan, Bukhara c. Gijduvan street 23, e-mail: info@bsmi.uz

✓ Resume

The clinical condition of patients with SARS CoV-2 pneumonia and type 2 diabetes mellitus was studied. In the study, 103 patients hospitalized with SARS CoV-2 pneumonia at the Bukhara Regional Infectious Diseases Hospital, which was converted into a Covid-center, were involved. The clinical symptoms of patients included in the study were compared. Clinical signs include wheezing, shortness of breath, nasal congestion, chest pain, dry cough, paroxysmal cough, general weakness, decreased appetite, fatigue, headache, dizziness, myalgia and parameters such as arthralgia, nausea or vomiting, nausea, anosmia, diarrhea, profuse sweating, sore throat.

Key words: SARS CoV-2, diabetes type 2, pneumonia.

Dolzarbligi

COVID-19 pandemiyasi fonida barcha mamlakatlarda aholi o'limi sonining ko'payishi qayd etishgan. Bunda bemorlarning alohida guruhlari ajratilgan bo'lib, ularda o'lim o'rtacha statistik ko'rsatkichidan sezilarli darajada oshgan. Shunday guruhlardan biriga, qandli diabet (QD) bilan kasallangan bemorlarni kiritiladi. Turli mamlakatlarda o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar QD bilan og'riq bemorlarda COVID-19 infeksiyasi bilan zararlanishning yuqori xavfini, shuningdek kasallikning yanada og'ir kechishini va o'lim darajasi yuqori ekanligini namoyish etdi [1,5].

QD ning 2-tipi bilan kasallangan bemorlar COVID-19 li bemorlarining eng zaif guruhiga kiradi. Anamnezida QD bo'lmagan bemorlar bilan taqqoslaganda QD 2-tipi bilan og'riq bemorlarda o'lim 2 baravarga yuqori bo'lib, o'lim bilan tugagan holatlar ulushida ayollar ustunlik qiladi. QD ning 2-tipi bo'lgan bemorlar assotsirlangan kasalliklarning (YuIK, SYuE, SBK, semizlik) yuqori chastotasiga ega bo'lgan va QD bo'lmagan guruhga nisbatan COVID-19 ning qonuniyat tarzida og'irroq kechishi, O'SV ulushi va ORID ga o'tkazishning 1,3 baravarga ko'pligi bilan xarakterlandi. Yurak-qon tomir kasalliklaridan, YuIK va SYuE bilan taqqoslaganda AG 2-tip QD bilan kasallangan bemorlarning o'lim xavfida eng katta ahamiyatga ega bo'ldi. 2-tip QD bilan kasallangan bemorlarda o'lim xavfi QD bo'lmagan shaxslarga qaraganda (66 yosh 71 yoshga qarshi) erta yoshda aniqlanadi. COVID-19 ning kechish og'irligini aks ettiruvchi (CRO, LDK, D-dimer) asosiy ko'rsatkichlarning ROC-tahliliga ko'ra kesishish nuqtalari nazorat guruhiga nisbatan QD 2-tipi bo'lgan guruhda pastroq [2,3,6].

O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, COVID-19 6,7% holatlarda o'limga sabab bo'lgan, COVID-19 pandemiyasi QD bilan kasallangan bemorlarda o'limning – 1,5 baravarga sezilarli oshishiga sabab bo'lgan, bu asosan, o'tkir yurak-qon tomir ofatlari, shuningdek QD ning surunkali asoratlarning progressiyalanishi hisobiga oshgan [4,7].

Tadqiqot maqsadi: SARS CoV-2 pnevmoniyasi va 2-toifa qandli diabet bilan kasallangan bemorlarning klinik holatini o'rganish.

Material va usullar

Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalarini inobatga olgan holda bemorlarning klinik holatini o'rganish uchun 2-tip qandli diabet bilan SARS-CoV-2 pnevmoniyasi assotsiatsiyasi bilan kasallangan bemorlarda tadqiqot o'tkazildi.

Tadqiqotda Kovid-markaziga aylantirilgan Buxoro viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasida SARS-CoV-2 pnevmoniyasi bilan kasalxonaga yotqizilgan 103 nafar bemor jalb qilindi. 2-tip qandli diabet fonida SARS-CoV-2 pnevmoniyasi bilan hospitalizatsiyalanganlarning barchasidan og'ir pnevmoniya bilan og'riq bemorlar - 35 (1-guruh), o'rtacha og'irlik bilan - 33 (2-guruh) bemorlar tashkil qildi. Taqqoslash guruhi (3-guruh) QD bilan kasallanmagan SARS-CoV-2 pnevmoniyasi bo'lgan 35 bemordan iborat bo'ldi. Nazorat guruhi mos yoshdagi 30 sog'lom odamdan iborat edi.

1-guruh bemorlarining o'rtacha yoshi $60,2 \pm 2,2$ yoshni, 2-guruh bemorlarida $50,0 \pm 2,0$ yoshni, taqqoslash guruhida esa $52,4 \pm 2,0$ yoshni tashkil etdi.

Nazorat guruhida o'rtacha yosh $54,0 \pm 2,0$ yoshni tashkil qildi.

Bemorlarning kasalxonada yotishining o'rtacha muddati: 1-guruhda $8,7 \pm 0,47$ kunni, 2-guruhda $6,4 \pm 0,26$ kunni, 3-guruhda $10,6 \pm 0,45$ kunni tashkil qildi.

Natija va tahlillar

SARS CoV-2 virulentligi virus tashqi qobig'idagi S proteinli retseptorlarga bog'liq bo'lib, u odam organizmidagi APF-2 retseptorlariga bog'lanib hujayra ichiga kiradi. APF-2 esa qon tomir endoteliy qavatida, jigar, buyrak, o'pka, oshqozon ichak, o't yo'llari hujayra va to'qimalarida borligi uchun shu organlarning zararlanishi bilan kechadi va bemorlarda ko'plab klinik belgilar paydo bo'ladi. Tadqiqotga jalb qilingan bemorlarning klinik belgilarning uchrashi o'zaro taqqoslab chiqildi. Klinik belgilar sifatida hansirash, nafas qisishi, burun bitishi, ko'krak qafasida og'riq, quruq yo'tal, xurujsimon yo'tal, umumiy xolsizlik, ishtaxaning pasayishi, tez charchash, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, mialgiya va artralgiya, ko'ngil aynishi yoki qusish, oznob, anosmiya, diareya, ko'p terlash, tomoqda og'riq kabi parametrlar o'rganildi.

Jadval 1.

Tekshirilayotgan guruhdagi bemorlarning klinik belgilarini uchrashi %

Klinik belgilar	Asosiy				Qiyosiy		Jami n=120	
	O'rta og'ir		Og'ir		abs	%	abs	%
	abs	%	Abs	%				
Hansirash	32	97	49	94,2	34	97,1	115	95,8
Nafas qisishi	21	63,6	35	67,3	1	2,9	57	47,5
Burun bitishi	1	3	1	1,9	0	0	2	1,7
Ko'krak qafasida og'riq	9	27,3	13	25	24	68,6	48	38,3
Quruq yo'tal	26	78,9	42	80,8	31	88,6	99	82,5
Xurujsimon yo'tal	4	12,1	10	19,2	5	14,3	19	15,8
Umumiy holsizlik	26	78,9	46	88,5	26	74,3	98	81,7
Ishtaxaning pasayishi	29	87,9	45	86,5	34	97,1	108	90
Tez charchash	20	60,6	22	42,3	4	11,4	46	38,3
Bosh og'rig'i	17	51,5	13	25	1	2,9	31	25,8
Bosh aylanishi	5	15,2	8	15,4	4	11,4	17	14,2
Mialgiya va artralgiya	17	51,5	20	38,5	2	5,7	39	32,5
Ko'ngil aynishi yoki qusish	13	39,4	21	40,4	0	0	34	28,3
Oznob	3	9,1	8	15,4	4	11,4	15	12,5
Anosmiya	3	9,1	7	2,2	32	91,4	42	35
Diareya	0	0	0	0	0	0	0	0
Ko'p terlash	29	87,9	45	86,5	34	97,1	108	90
Tomoqda og'riq	8	24,2	12	23,1	5	14,3	25	20,8

Tekshirilayotgan guruhdagi bemorlarda umumiy holsizlik, ko'p terlash, ishtaha pastligi, tez charchash klinik belgilarining uchrash darajasi o'rganilganda umumiy holsizlik jami bemorlarning 81,5%, ko'p terlash 90%, ishtaha pastligi ham 90% ni tashkil etib boshqalaridan ustunlik qildi.



Tekshirilayotgan bemorlarda uchragan asosiy klinik belgilardan biri bu nafas qisilishi hisoblanadi. Nafas qisilishi klinik belgisining uchrash darajasini tahlil qilganda o'rta og'ir bemorlarning 21 nafarida (63,6%), og'ir bemorlarning 35 nafarida (67,3%), va qiyosiy guruh bemorlarning 1 nafarida (2,9%) kuzatildi. Eng yuqori ko'rsatkich 2- tip qandli diabet bilan kasallangan SARS CoV-2 pnevmoniyaning og'ir dajasida 67,3% ni tashkil etdi. Keyingi klinik simptom bu hansirash bo'lib, tekshirilayotgan bemorlarda eng ko'p kuzatildi. Jami 115 nafar 95,8% bemorlarda uchradi. Hansirash klinik belgisining uchrash darajasini tahlil qilganda 1-o'rta og'ir guruhdagi bemorlarning 32 nafarida (97%), og'ir guruhdagi bemorlarning 49 nafarida (94,2%), va qiyosiy guruhdagi bemorlarning 34 nafarida (97,1%) kuzatildi. Yuqoridagidan ko'rinib turibdiki nafas qisilishi og'ir guruhdagi bemorlarda, hansirash esa qiyosiy guruhdagi bemorlarda sezilarli darajada yuqari ekanligi aniqlandi.

Quruq yo'tal va xurujsimon balg'amli yo'tal SARS CoV-2 pnevmoniyasida kuzatiladigan asosiy klinik belgi sanaladi. Quruq yo'tal jami kasallanganlarning 99 nafarida (82,5%), xurujsimon balg'amli yo'tal esa 19 nafarida (15,8%) da kuzatildi. Ahamiyatli xurujsimon balg'amli yo'tal kuzatilgan 19 nafarning bemorning 10 nafarini og'ir guruhdagi bemorlar tashkil qildi.

Burun bitishi tekshirilayotgan bemorlarda deyarli uchramadi. Tahlil natijalariga ko'ra ushbu klinik simptom 1-guruhdagi bemorlarning 1 nafarida, 2-guruhdagi bemorlarning 1-nafarida, qiyosiy guruhdagi bemorlarda esa

kuzatilmadi. Ko'krak qafasidagi og'riq SARS CoV-2 pnevmoniyasida uchraydigan yana bir asosiy simptomlardan biridir. Bu simptomning tahlili shuni ko'rsatdiki, jami bemorlarning 48 nafari (38,3%) da kuzatildi, shundan 24 nafari qiyosiy gruppaga bemorlarda ekanligi aniqlandi. O'rta og'ir darajadagi bemorlarning 27,3% da, og'ir daradagi bemorlarning 25 % di ushbu simptom qayd etildi.

Bizga malumki SARS CoV-2 infeksiyasi ko'plab a'zo va tizimlarga o'z tasirini o'tkazmay qolmaydi, jumladan nerv sistemasidir. Virusning bu tizimga tasiri natijasida bosh og'rig'i, bosh aylanishi, anosimiya, mialgiya va artralgiya kabi klinik belgilar kuzatiladi. Tekshiruvga jalb qilingan bemorlarda ham ushbu klinik belgilar qayd etildi. SARS CoV-2 pnevmoniyasining 2- tip qandli diabet bilan birgalikda kelgan bemorlar orasida bosh og'rig'i, artralgiya va mialgiya klinik belgilari sezilarli darajada ko'p uchradi. Shu sababli uni kasallikning asosiy simptomlari qatoriga qo'shishimiz mumkin. Tekshirilayotgan bemorlar orasida kasallikning o'rta og'ir shakli kasallanganlarning 17 nafari (51,5%), og'ir shakldagilarning 13 nafari (25%) ida, umumiy nazorataga olingan bemorlarning 25,8% ida bosh og'rig'i qayd etildi. Bosh og'rig'i klinik belgisi 2-guruhdagi bemorlar orasida yuqori natijani qayd etdi. Bosh aylanishi klinik belgisini o'rganib chiqqanimizda sezilarli darajada kam natijani qayd etdi. Umumiy bemorlarning 17 nafari (14,2%) ida ushbu klinik belgi qayd etildi.

Tekshirilayotgan bemorlarning umumiy 39 nafari (32,5%) mialgiya va artralgiyadan shikoyat qildi. Ularning 17 nafari (51,5%) o'rta og'ir bemorlarada, 20 nafari (38,5%) og'ir bemorlarada, 2 nafari (5,7%) qiyosiy gruppada bemorlarda qayd etildi.

Anosimiya COVID-19 bilan kasallangan bemorlar orasida sezilarli darajada ko'p uchragan klinik belgi sanaladi. Bizning tadqiqotga jalb qilingan bemorlarning 42 nafari (35%) ushbu klinik belgi qayd etildi.

SARS CoV-2 infeksiyasi boshqa azo va tizimlar qatorida me'da ichak tizimi (MIT) ga ham o'z tasirini o'tkazmay qolmadi. Ushbu tizimga tasiri natijasida kelib chiqadigan klinik belgi bu ko'ngil aynish, qusish va diareya sanaladi. Ko'ngil aynishi va qusish tadqiqotga jalb qilingan bemorlarning 34 nafari (28,3 %) da qayd etildi. Qiyosiy gruppada bemorlarda ushbu klinik belgi uchramadi. 1-gruppada bemorlarning 21(40,4%) nafarida, 2-guruhdagi bemorlarning 13 (39,4%) ko'ngil aynishi va qusishdan shikoyat qildi. Ajabnalarlisi shuki bizning tadqiqotga jalb qilingan bemorlar orasida diareya kuzatilmadi.

Ma'lumki ko'p terlash ham koronavirus infeksiyasida qay etilgan asosiy simptomlardan sanaladi. Tadqiqotga jalb qilingan bemorlarning 108 nafari (90%) ko'p terlashdan shikoyat qildi. Ularning 29 nafari (87,9%) o'rta og'ir bemorlarida, 45 nafari (86,5%) og'ir bemorlarda, 34 nafari (97,1%) qiyosiy gruppada bemorlarda uchradi.

Xulosa

Tekshirilayotgan guruhlarda uchragan ushbu simptomlar orasida hansirash 95,8% bemorlarda, ko'p teralash 90%, ishtaha pastligi 90%, quruq yo'tal umumiy 82,5% bemorlarda uchrab, boshqa klinik belgilarga qaraganda uchrash foizi bo'yicha ustunlik qildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ramazonova A. M. Correlation Relationship of Interferons, Cytokines with Biochemical Mediators of Inflammation in The Blood in The Association of Covid-19 and Type 2 Diabetes //Texas Journal of Medical Science. 2023;26:70-77.
2. Ramazonova A. M. Correlation Relationship of Interferons, Cytokines with Biochemical Mediators of Inflammation in The Blood in The Association of Covid-19 and Type 2 Diabetes //Texas Journal of Medical Science. 2023;26:26-32.
3. Облокулов А.Р., Ниезов Г.Э., Ражабов А.Р. (2021). COVID - Ассоциированная Коагулопатия у пациентов новой коронавирусной инфекции. Central Asian Journal of Medical and Natural Sciences 2021; 124-130.
4. Демидов Н.А., Андреева А.В., Анциферов М.Б. Сахарный диабет и COVID-19 в Москве: статус 2020 г. //Эндокринология: новости, мнения, обучение. 2021;10(2):32-40. DOI: <https://doi.org/10.33029/2304-9529-2021-10-2-32-40>
5. Машкова М.А. Протективный эффект интерлейкина 4 на фибробласты в 3D-клеточной модели взаимодействия между клетками кожи и иммунными клетками пациентов с сахарным диабетом 2 типа и сахарным диабетом 2 типа с хроническими язвами стоп / М.А. Машкова, Т.В. Мохорт, В.А. Горанов //Журнал Гродненского государственного медицинского университета. 2020;18(4):410-416. <http:// dx.doi.org/10.25298/2221-8785-2020-18-4-410-416>
6. Пономарева А.А. Прогностические факторы риска клинических исходов пациентов с сахарным диабетом 2 типа и новой коронавирусной инфекцией //Эндокринология: новости, мнения, обучение. 2021;10(3):106-108. DOI:<https://doi.org/10.33029/2304-9529-2021-10-3-106-108>
7. Хайдарова Ф.А., Алиева А.В., Бердыкулова Д.М., Алимова Н.У., Халилова Д.З., Тожиева И.М. Структура смертности среди пациентов с сахарным диабетом в Республике Узбекистан во время пандемии COVID-19 //Сахарный диабет. 2022;25(4):322-326. doi: <https://doi.org/10.14341/DM12786C>

Qabul qilingan sana 20.08.2024